

МУГАЛЛИМ ҲӘМ ҮЗЛИКСИЗ БИЛИМЛЕНДИРИҮ



ISSN 2181-7138

№ 1/2 2022 жыл

Илимий-методикалық журнал

Редактор:
A. Тилегенов

Редколлегия ағзалары:
Максет АЙЫМБЕТОВ
Нафмет АЙЫМБЕТОВ
Байрамбай ОТЕМУРАТОВ
Кеңесбай АЛЛАМБЕРГЕНОВ
Алишер АЛЛАМУРАТОВ
Дилшодхұжа АЙТБАЕВ
Өсербай ӘЛЕҮОВ
Аскар ДЖУМАШЕВ
Кеңесбай Даулетяров
Гүлнара ЖУМАШЕВА
Мырзамурат ЖУМАМУРАТОВ
Амангелди КАМАЛОВ
Гулмира КАРЛЫБАЕВА
Асқарбай НИЯЗОВ
Сабит НУРЖАНОВ
Уролбой МИРСАНОВ
Арзы ПАЗЫЛОВ
Зухра СЕЙТОВА
Айдын СУЛТАНОВА
Тажибай УТЕБАЕВ
Ризамат ШОДИЕВ
Ойбахор ШАМИЕВА
Бекзод ХОДЖАЕВ
Дўстназар ХИММАТАЛИЕВ
Гулрухсөр ЭРГАШЕВА

Шөлкемлестириўшилер:
Қарақалпақстан Республикасы
Халық билимлендіриў
Министрлігі, ӨЗПИИИ
Қарақалпақстан филиалы

Өзбекстан Республикасы
Министрлөр Кабинети
жанындағы Жоқарғы
Аттестация Комиссиясы
Президиумының 25.10.2007
жыл (№138) қаравы менен
дизимге алынды

Қарақалпақстан Баспа сөз ҳәм
хабар агентлиги тәрепинен
2007-жылы 14-февральдан дизимге
алынды №01-044-санлы гүйалық
берилген.

Мәнзил: Нөкис қаласы,
Ерназар Алакөз көшеси №54
Тел.: 224-23-00
e-mail: uzniipnkkf@mail.uz,
mugallim-pednauk@mail.uz
www.mugallim-uziksiz-bilim.uz

Журналга келген мақалаларға жоюшап қайтарылмайды, журналда жәрияланған мақалалардан алынған үзиндер «Мугаллим ҳәм үзликсиз билимлендіриү» журналынан алынды, дең көрсетилүү шарт. Журналға 5-6 бет колемндеги материаллар еки интервалда TIMES NEW ROMAN шрифттінде электрон версиясы менен бирге қабыл етіледи. Мақалада көлтирилген мәлімдемелер автор жүзуапкер.

МАЗМУНЫ

ТИЛ ҲӘМ ӘДЕБИЯТ

Ibadullaev K.M. PIRLS xalqaro baholash dasturi talablari	4
Тешабоева З.С. Шакл ва мазмун ўртасидаги функционал алоқалар - сўзлар орасидаги муносабатларни ифодаловчи восита сифатида	8
Марипова Н.Х. Инновационные подходы обучению иностранному языку в неязыковых вузах	10
Ахмадалиева М.Ш. Роль литературной критики в саморазвитии писателя	14
Наримбоева Л.К. Практические аспекты формирования коммуникативного подхода в развитии языковой личности при обучении иностранному языку	17
Achilova M.S. Composition analysis of the work A.S.Chulpan	21

ПЕДАГОГИКА, ПСИХОЛОГИЯ

Ибадуллаев К.М. Интерактив электрон доскалар – таълим сифатини оширишнинг омили сифатида	24
Ахмадалиев Б.С. PIRLS баҳолаш тизимида танқидий ўқиш тамойилларининг аҳамияти ..	26
Шарипова Н.Б. Ўқувчилар билан ишлаш жараёнида ноанъянавий дарсларни ташкил этиш	30
Атабоев Ф.У. Методы и формы обучения в непрерывное образование	34
Атабеков Ф.О. Коммуникативная стратегия убеждения и способы её реализации в аргументационных текстах паремий	38
Холматова С.К. Медиакомпетентность педагога как фактор развитие медиаграмотности студентов	40
Исманова М.А. Психологические свойства формирования профессиональной направленности личности педагога	44
Носирова Р.Х. Инновационные методы преподавания психологии и связь с педагогикой	48
Санакурова А.Р. Повышения качества педагогического корпуса в профессионально-ориентированное подготовке в межотраслевой интеграции	51
Ибадуллаев К.М. Применение компьютерных технологий в обучении географии	54
Муталова Д.А. Методы и формы обучения в непрерывное образование	57
Xidoyatova N.A. Integrative approach: important element of teaching of foreign language	62
Shonasirova Z.Yu. The role of independent works in educational process	65
Xidoyatova N.A. The psychological development of properties volitional qualities of pupils	68
Joraboyeb A.B., G'anixo'jayev A.Sh. Professional training of a teacher of a new formation in the conditions of the implementation of inter-industrial integration	72

МИЛЛИЙ ИДЕЯ ҲӘМ РУЎХЫЛЫҚ ТИЙКАРЛАРЫ, ТАРИХ, ФИЛОСОФИЯ

Соатов Э.М. Возможности предвидение: методы и средства познания будущего	75
Ismanova M.A. Methodology of teaching history as an academic subject	79

ФИЗИКА, МАТЕМАТИКА, ИНФОРМАТИКА

Турсунбоеva M.D. Бўлажак меҳнат таълими ўқитувчиларининг касбий сифатларини узвийлик ва узлуксизлик тамойили асосида боскичма-боскич шакллантириш	86
Журабоев A.B. Совершенствование информационных технологий в формировании профессиональной компетентности будущего специалиста	89
Холматова С.К. Применение информационно-коммуникационной технологии в обучение правового мышление	93
Каюмов Ж .С. Теория применение информационно-коммуникационной технологии в образование	95
Tursunboyeva M.D. System of information and communication technologies in the education	99

БАСЛАЙШ КЛАСС, МЕКТЕПКЕ ШЕКЕМГИ ТЭРБИЯ

Хурвалиева Т.Л. Мактабгача 5-7 ёщдаги болаларни атроф олам билан таништиришда замонавий технологиялардан фойдаланиш	103
Каримжанова Д.А. Мактабгача таълим муассасаларда тарбияланувчиларни ижодкорлигини ривожлантиришнинг интерактив методлари	107
Хурвалиева Т.Л., Худойберганова Ш.Б. Мактабгача ёщдаги болаларни атроф олам билан таништиришда хорижий тажрибалардан фойдаланиш	111
Abdullayeva M.D. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida ijtimoiy-huquqiy me'yorlar asosida ijtimoiy ko'nikmalarni takomillashtirish yo'llari	115
Abdullayeva M.D. Maktabgacha va kichik maktab yoshidagi bolalarni ijtimoiy-huquqiy me'yorlar bilan tanishtirish	118
Шанасирова З.Ю. Подготовка будущего учителя к преподаванию дисциплины «Окружающий мир» в начальной школе	120
Абдуллаев А.А., Эркинходжаева Г.Э. Место и роль физической культуры в общей системе воспитания детей дошкольного возраста	125
Матмуродов А.К. Повышение уровня самостоятельности на основе структуры урока труда в младших классах	129

ФИЗИКАЛЫҚ ТЭРБИЯ ХƏМ СПОРТ

Носирова Р.Х.,Рустамбекова Н.А. Соглом турмуш тарзини яратишида ижтимоий хамкорлик масалалари	135
Солайдинов Э.Ш. Соғлом турмуш тарзини яратишида кўхна ҳалқ ўйинларидан фойдаланиш йўллари	140
Хуррамов Э.Э. Бўлажак жисмоний тарбия ўқитувчиларини инновацион фаолиятга тайёрлашда Европа мамлакатлари тажрибаларидан фойдаланиш технологиялари	142
Хакимов Ш.Т. Жисмоний тарбия бўйича дарс конспектини тузиш методикаси	148
Абдуллаев А.А. Физическое воспитание в системе подготовки человека к профессиональной деятельности	154
Абдуллаев А.А. Социокультурные функции и роль физической культуры в формировании основных качеств и свойств личности	157
Gimazudinov R.G. The oretical and practical basis of badminton coach activity	160

ТИЛ ХӘМ ӘДЕБИЯТ



PIRLS XALQARO BAHOLASH DASTURLARI TALABLARI

Ibadullaev K.M.

Chirchik State Pedagogical Institute

Tayanch so'zlar: ta'lim sifati, xalqaro baholash dasturi, PIRLS, TIMSS, PISA, TALIS, PIAAC, ICCS, SITES, IALS, ALL, EGMA, EGRA, STEAM.

Ключевые слова: качество образования, международная программа оценки, PIRLS, TIMSS, PISA, TALIS, PIAAC, ICCS, SITES, IALS, ALL, EGMA, EGRA, STEAM.

Key words: quality of education, international assessment program, PIRLS, TIMSS, PISA, TALIS, PIAAC, ICCS, SITES, IALS, ALL, EGMA, EGRA, STEAM.

Ta'limming sifati, uning kompetentligi, mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining muhim omili sifatida raqobatga chidamli malakali mutaxassislarini tayyorlash globalashuv davrining muhim talab va ehtiyojlaridan biriga aylandi. Ta'lim sifatiga qo'yilayotgan xalqaro baholash dastur talablari kelajak egalari sifatida yosh avlodni tayyorlashda dunyo mamlakatlarining maqsadlarini umumiylashishiga olib kelmoqdi.

Yosh avlodning intelektual faolligini shakllantirish nafaqat muayyan bir mamlakat balki xalqaro hamjamiyat uchun ham muhim masalaga aylandi. Shuning uchun ta'lim sifati, ta'lim sifatini baholash kabi masalalar bilan ko'pgina xalqaro tashkilotlar davlatlarda ta'lim sohasida quyidagi baholash dasturlari amaliyotga tatbiq etilgan:

PIRLS (Progress in International Reading Literacy Study) – bu turli mamlakatlarda 4-sinf o'quvchilarining matnni o'qish va tushunishdarajalarini baholab beruvchi xalqaro qiyosiy baholash mezonidir.

PIRLS bu 4-sinf o'quvchilarining matnni o'qish va tushunishdarajalarini baholab beruvchi xalqaro qiyosiy baholash mezonidir.

PIRLS – tadqiqotning maqsadi turli xil ta'lim tizimidan iborat bo'lgan davlatlarda boshlang'ich maktab o'quvchilarining matnni o'qish va qabul qilish bo'yicha tayyorgarligi hamda o'quvchilarining har xil yutuqlarga erishishga sabab bo'luvchi ta'lim tizimidagi

o'ziga xos xususiyatlarni aniqlash va baholashdan iborat. Albatta, bunday tadqiqot xalq ta'limi sohasidagi ishchilar, olimlar, metodistlar, o'qituvchilar, ota-onalar va jamoat vakillari uchun katta ahamiyatga egadir. PIRLS tadqiqotlari Xalqaro ta'lim institutlari assosiatsiyasi (IEA) tomonidan muvofiqlashtiriladi. Ta'lim yutuqlarini baholash xalqaro assosiatsiyasi (IEA- International Association for the Evaluation of Educational Achievement) tomonidan tashkil etilgan. Xalqaro tadqiqotni tashkil etish uchun barcha mas'uliyat Chestnut Hill (Maccachucetc, AQSH) Boston kollejiga yuklatilgan. Tadqiqot uchun topshiriqlarni tayyorlash Germaniya (Gamburg) ma'lumotlar markazida amalga oshiriladi. Ilk bora tadqiqot 2001-yilda o'tkazilgan. Tadqiqot har 5 yilda bir marotaba o'tkaziladi. PIRLS tadqiqotda ishtiroy etuvchi turli mamlakatlarda boshlang'ich sinfga maktab o'quvchilarini qabul qilish yoshi turlicha. Ko'plab mamlakatlarda maktabga olti yoshdan qabul qilishadi va to'rtinchisini 10.5 yoshda tugatishadi. Biroq Angliya, Yangi Zelandiya, Trinidad Tobagoda- maktabga 5 yoshdan qabul qilishadi va ahamiyatlari jihatida PIRLS xalqaro tadqiqotida ushbu mamlakatlarning 5-sinf o'quvchilari xalqaro tadqiqotda ishtiroy etishadi. Shvetsiya, Daniya va ko'plab Sharqiy davlatlarda- maktabga 7 yoshdan qabul boshlanadi va ushbu mamlakatlarning o'quvchilari qolgan tengdoshlariga nisbatan eng katta yoshni tashkil etadi.

Zamonaviy globallashuv va o'sib borayotgan xalqaro raqobat sharoitida "Har tamonlama rivojlanish konsepsiysi" yosh avlodning bilim darajasiga bog'liq bo'lib qolmoqda. Shu maqsadda O'zbekiston Respublikasida yosh avlodni XXI asr bilim va ko'nikmalarini egallashlari uchun zarur shart-sharoit yaratish maqsadida ta'lim sohasida tizimli islohotlar amalga oshirilib kelinmoqda. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 8-dekabrda "Xalq ta'limi tizimida ta'lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori asosida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Ta'lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi huzurida Ta'lim sifatini baholash bo'yicha xalqaro taqdiqotlarni amalga oshirish Milliy markazi tashkil etildi. Bunday markazning tashkil etilishi o'quvchilarning ta'limdagi yutuqlarini baholash va nazorat qilish imkonini beradi. Bundan ko'rindaniki, mamlakatimizda ta'lim sifatini baholashning yangicha tizimi shakllanmoqda. Hozirda zamon talablariga javob beradigan munosib milliy baholash tizimini takomillashtirish maqsadida xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlik aloqalari rivojlantirilmoxqda. Jumladan, 2018-yil 12-noyabrda Xalqaro hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti o'rtasida Xalqaro talabalar bilimini baholash dasturi (programme for international student assessment (PISA) da ishtiroy etish to'g'risida kelishuv imzolandi. O'zbekiston Respublikasi ta'lim tizimida bunday xalqaro baholash tendensiyalariga amal qilish yosh avlodni intellektual faolligini oshirish, ularning ta'limdagi kompetentligini va kreativligini rivojlanishiga hissa qo'shadi. Yuqorida keltirilgan xalqaro baholash dasturlari tahsil oluvchilarning shu kabi qobiliyatlarini rivojlanishiga qaratilgan. Bugungi kunda bu baholash dasturlarini ta'lim jaraoyoniga integratsiya etish zarur hisoblanadi.

PIRLS tadqiqotlarida darsda o'quvchilar tomonidan eng ko'p qo'llaniladigan o'qishning quyidagi ikki turi o'rganiladi:

1. Adabiy kitobxonlik malakasini egallash maqsadidagi o'qish.
 2. Mazmunni tushunish va amalda foydalaniш maqsadidagi o'qish.
- O'quvchilarga ikki xil topshiriq beriladi:
1. Adabiy o'qish tajribasini o'rganish;
 2. Axborotni tahlil qilish va undan foydalansh[2].

O'qish savodxonligining asosi matnlar bilan to'liq ishslash uchun zarur bo'lgan o'qish qobiliyatlarini shakllantirishdir. Bu o'quvchi tomonidan kerakli ma'lumotlarni topish va tushunish, tahlil qilish, matnning ma'lum qismi bo'yicha xulosalar chiqarish, asosiy

belgilarning harakatlarini sharhlash, matn namunalari va matn tuzilishini tahlil qilish va solishtirish.

PIRLS tadqiqotida ishlatalidigan matnlar uchun quyidagi mezonlar belgilangan:

1. Uzunligi.

PIRLS:1000ta so'zgacha. PIRLS-o'qish savodxonligi darajasi past bo'lган mamlakatlar uchun 400-500 ta so'z.

2. Mavzu.

- Adabiy matnlar asosiy mavzuga ega bo'lib, u berilgan matndan tashqari o'quvchi tomonidan umumlashtiriladi.
- Axborotdan iborat bo'lган matnlar o'quv materiallaridan olinmagan mavzuni yoritibberishikerak.

3. Til.

- Qismlar 40 dan ortiq tillarga tarjima qilinadi, shuning uchun tarjima qulay bo'lishi muhimdir.
- Metafora yoki epitet kabi aniq ifodalni tasvirlash so'zlari tanlanadi. Hech qanday so'zlashuvga oid leksika yoki jargon ishlatilmaydi

4. Masmuni

- Matnning mazmuni 9-10 yoshdagi o'quvchilarning yosh xususiyatlariiga mos kelishi kerak.
- Ayrim ma'daniyatlarga juda xos bo'lган mavzulardan chetlanmoq kerak. Matn shu yoshdagи maktab o'quvchilari uchun qiziqarli va zavqli bo'lishi kerak. -Yaxshi yozilgan va unchalik tanish bo'lмаган bo'lishi lozim.

5.Bog'liqlik va ketma-ketlik.

- Syujetning mantiqiy tuzulishiga rioya qilish muhimdir.
- Oddiy va murakkab gaplarning bir xil ishlatalishi.
- Agar dialog ustunlik qilsa, ma'lumotni birlashtirib, murakkab gaplarni qo'shish kerak.
- Axborot matnda matnning strukturasi va ma'lumotning mantiqiy ketma-ketligini sarlavhalar, jadvallar, grafiklar kabi vizual elementlar bilan bog'liqligini kuzatish shartdir.

PIRLS tadqiqotlarida xalqaro miqyosda hammasi bo'lib, to'rtta daraja ko'rsatilgan:

1. Eng yuqori daraja 625 ball

2. Yuqori daraja 550 ball

3. O'rta daraja - 475 ballga

4. Past daraja - 400 ballga to'g'ri keladi

Olib borilgan baholash dasturi natijalarini aniqlashda hamda javoblarni tanlash bilan vazifalarini tekshirish maxsus WinDem dasturidan foydalangan holda xalqaro mutaxassislar tomonidan amalga oshiriladi. Shu bilan birga, ochiq javobga ega bo'lган vazifalar Milliy muvofiqlashtiruvchilar tomonidan tekshiriladi. Vazifalar mutaxassislar tomonidan (IEA) ishlab chiqilgan Xalqaro vazifalarни baholash qo'llanmasiga muvofiq ko'rib chiqiladi. Qo'llanmada har bir vazifaning bajarilishini baholashga umumiyl yondashuvlar mavjud. Har bir vazifa uchun uning bajarilishini baholash uchun maxsus tavsiyalar ishlab chiqilgan. Kodlash natijalari ma'lumotlar bazasiga kiritiladi va tekshirish uchun Xalqaro markazga yuboriladi [3].

Har to'rtinchи daftар milliy miqyosda mustaqil ekspertlar tomonidan ikki marta tekshiriladi, so'ngra ushbu daftarlarning bir qismi xalqaro ekspertlar tomonidan tekshiriladi. Ishtirok etuvchi davlatlar mutaxassislari nomuvofiq baholarni beradigan vazifalar tahlildan olib tashlangan.

Taklif etilgan to'rtta savoldan javoblarni tanlash va voqealar ketma-ketligini belgilash bo'yicha topshiriqlar bir ball bilan baholanadi. Erkin tuzilgan javob bilan topshiriqlar - vazifaning murakkabligiga qarab 1 balldan 3 ballgacha.

2021-yilda o'tkazilgan tadqiqotlarda yurtimiz o'quvchilar ham ishtirok etdi. Bu jarayon boshlang'ich ta'lif o'quvchilariga katta mas'uliyat yukladi. Bu muhim vazifani amalga oshirishda ijobjiy yutuqlarga erishish o'quvchidan ta'limga yangicha yondashuvni, faoliyknii talab etishi amalda o'z isbotini topdi. Shu o'rinda o'quvchini xalqaro baholash darajasini belgilovchi PIRLSga qanday tayyorlash mumkin degan savol ko'pchilikni o'ylantiradi.

PIRLSga tizimli tayyorlashda sinfdan tashqari o'qish, mustahkamlash, takrorlash darslari hamda to'garaklarning o'mi juda muhim. Bunda o'quvchining dunyoqarashini kengaytirish, mustaqil fikrashi, obratzli tafakkurini rivojlantrish o'ta muhim hisoblanadi. Albatta bu ishda ota-onaning o'z o'rni bor. Oilada kattalar kitob o'qisa, bola ham bora-bora ularga ergashadi. Yoshiga munosib kitoblarни olib berishda o'quvchi tavsiyasiga amal qilish foydali hisoblanadi. Bo'sh vaqtida bola oldi-qochdi seriallar, multfilmlar emas, bolalar uchun ishlangan mantiqqa boy filmlar, hayvonot va nabotot dunyosi haqidagi ko'rsatuvlarni kuzatib borishi ham yaxshi samara beradi.

Sportning deyarli barcha turlari, ayniqsa shaxmat o'quvchining diqqatini oshirishiga, maqsad sari olg'a intilishga, mustaqil qaror qabul qilish layoqati shakllanishiga yordam beradi.

Dars jarayonida yoki bola bilan muloqot qiladigan tanaffuslar chog'ida uning to'g'ri yoki noto'g'ri fikrini tinglab, to'g'ri xulosani hayotiy faktlar orqali chiqarish o'ta muhim. O'quituchining o'quvchidan adabiy tilda gapirishini talab etishi o'quvchining o'z ustida yanada izlanishini taqozo etadi va bu kitobxonlik sari yo'l ochib beradi.

Sinfdan tashqari o'qish darslarini tashkil etishda, o'quvchiga o'qiladigan materiallarni 1 hafta oldin tavsija etsa, o'quvchi dam oladigan shanba, yakshanba kunlarida bekor qolmaydi. Albatta, bunda ota-ona nazorati o'ta muhim .

Asar mazmuni bilan tanishgan o'quvchi tayyorgarlikning keyingi bosqichlarida qiyalmaydi. Asar mazmuni asosida savol-javob o'tkaziladi. Asar qismilariga ajratilib, har bir qismga o'quvchilar tomonidan sarlavha toptiriladi.

Adabiyotni tushunish va baholash uchun har bir o'quvchi tilni tushunishi va badiiy shakllarni bilishi kerak. Axborot va badiiy matnlar ustida ishslash o'quvchilardan tabiiy, ijtimoiy, matematik bilimlarni puxta o'zlashtirishni talab etadi.

Foydalilanigan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi «O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantrish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida»gi PF-5712 Farmoni.
2. Kurbonova M , Abdullayeva O.O. The role of international EGRA and EGMA research in increasing educational efficiency // International Journal of Pedagogical Research (IJARP). – Washington, 2021. – Р. 106-107.
3. Бозоров Н.Н., Курбонова М.Ф. Бўлажак ўқитувчиларда касбий компетенцияларни шакллантириш тизимлари // Мактаб ва хаёт. – Тошкент, 2020. Махсус сон №1. – Б. 32-34. (13.00.00 №4)
4. Kurbonova M , Abdullayeva O.O. The role of international EGRA and EGMA research in increasing educational efficiency // International Journal of Pedagogical Research (IJARP). – Washington, 2021. – Р. 106-107.
5. Курбонова М.Ф., Бобоева М.У. Проблемы и пути развития образовательных компетенций учащихся в дошкольном образовании. Актуальные вопросы развития современного общества, экономика и профессиальное образование. Международной конференции. – Екатеринбург, 2020. – С.128-131.
6. Демидова С.И., Денишева Л.О. Самостоятельная деятельность учащихся при обучении математике. - М.: Просвещение, 1985 г.- 189 с.
7. Дубова М.В., Хнирева Ю.В. Анализ учебника с точки зрения компетентностного подхода // Начальная школа. 2008. №8. - С. 68-71.
8. Дмитриев А.Э. Эффективность формирования умений и навиков в системе начального обучения // Педагогика. - 1991. - № 5. - С. 23-29.

РЕЗЮМЕ

Ushbu maqolada boshlang'ich ta'lim tizimini baholovchi PIRLS xalqaro baholash dasturi talabalari va mezonlari, boshqa xalqaro dasturlardan farqli jihatlari tahlil qilingan. PIRLS xalqaro baholash dasturiga tayyorgarlik ko'rish uchun ushlubyi tavsiyalar ishlab chiqilgan.

РЕЗЮМЕ

В данной статье анализируются учащиеся и критерии Международной оценочной программы PIRLS, которая оценивает систему начального образования, и ее отличия от других международных программ. Для подготовки к международной программе оценки PIRLS были разработаны руководящие принципы.

SUMMARY

This article analyzes the students and criteria of the PIRLS International Assessment Program, which evaluates the primary education system, and its differences from other international programs. Guidelines have been developed to prepare for the international PIRLS assessment program.

**ШАКЛ ВА МАЗМУН ЎРТАСИДАГИ ФУНКЦИОНАЛ
АЛОҚАЛАР- СҮЗЛАР ОРАСИДАГИ МУНОСАБАТЛАРНИ
ИФОДАЛОВЧИ ВОСИТА СИФАТИДА**

Тешабоева З.С.

Чирчиқ давлат педагогика институти

Таяинч сўзлар: шакл, мазмун, фонетика, тил, нутқ, фонетик, термин, феъл, содда гап.

Ключевые слова: форма, содержание, Фонетика, язык, речь, термин, глагол, простое предложение.

Key words: form, content, phonetics, language, speech, Phonetics, term, verb, simple sentence.

Шакл ва мазмун муаммоси, умуман олганда, жуда кенг масала бўлиб, у тилнинг бутун ички структураси ва функциясини ўзига камраб олади. Чунки бунда, бир томондан, тилда ниманинг шакл, ниманинг мазмун бўлиши, иккинчидан, нутқда ниманинг шакл, ниманинг мазмун бўлиши, учинчидан эса, нутқ билан тил орасидаги шакл ва мазмунлик муносабати ҳақида сўз юритилади. Тилшунослик тарихида шакл термини жуда ранг-баранг маънода ва турли иборалар билан кўлланганлиги маълум. Масалан: А.Фр. Потт, О. Бётлингк, А.А. Шахматов, Ф.Ф. Фортунатов ва унинг издошлари сўзнинг онга шакл ва лексик маъноли қисмларга бўлиниш қобилиятини, Н.Я. Марр семит ва Жанубий Кавказ тилларида сўз таркибидаги унли товушларни, В. фон Гумбольдт, Г. Пауль, К. С. Аксаков, В. А. Богородицкий, А. Н. Томсон, И. А. Бодуэн де Курманэ, Л. В. Шчерба, В. В. Виноградов ва бошқа жуда кўп тилшунослар сўзнинг нутқда кўлланиш қиёфасини ёки ўзгартиш парадигмасидаги ҳар бир бутунликни шакл деб ҳисоблайдилар. Булардан ташқари, сўзнинг «ташки шаклси» (фонетик томони) ҳақида ҳам гапирилади. Баъзан «шакл» термини маъно ёки маънога алоқадор бўлган ҳодисаларга нисбатан кўлланилиб, у семантик ҳодисаларнинг номларига маънодош ҳам бўлиб колади. Масалан, ички шакл термини худи манна шундай «шакл» доирасидан чиқиб кетадиган семантик ҳодисага нисбатан кўлланилиб келади. Шунинг учун у («ички шакл») «логик шакл» -В. Вундт, М. В. Беляев, «вакиль», «этимон», «ишора» -А. АК. Потебия, «генетик маъно», В. А. Бородицкий, «ички белги (яъни образ)»-Л. А. Булаховский, «идеологик семантика» - В. И. Абаев сўз ёки иборалар билан номлангани маълум. Лекин грамматик шакл энг актив ва энг муҳим термин сифатида актив ва энг муҳим термин сифатида ҳам-масидан кўп кўлланилади. Фалсафий нутқай назардан қараганда, шакл предмет-